

Namangan viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026- yil yanvar-aprel dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1- may holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 5 188 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 15 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5 173 tani tashkil qildi.


2026- yilning yanvar-aprel oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 10 207,6 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 126,3 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 753,7 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,4 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 7 446,0 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 126,6 %), uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 007,9 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 135,4 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)



II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1- may holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2 930 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 13 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 917 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2026- yilning yanvar-aprel oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 6 136,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 5,6 % ga o'sdi.


Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 4 821,4 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 11,7 % ga to'g'ri keldi. Viloyatdagi jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 78,6 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar Uchqo'rg'on (192,8%), Uychi (143,1 %) va Namangan sh (112,2 %).

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026- yil 1- may holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 320 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 8 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 312 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-aprel oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 7 377,4 mlrd so'mga yetdi. 2025- yilning mos davriga nisbatan 110,0 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 90,4 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarining savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)





IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.